

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING SHAXS
VA SHAXSLAR ARO MUNOSABATLARI VA ULARNI OILADA
TARBIYALASH USULLARI**

Muslimaxon Saydiakromova Saydiaxror qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Special Pedagogy fakulteti talabasi saydiaxrorovnam@gmail.com

+998 88 199 07 26

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O'zbekistondagi eshitishida nuqsoni bo'lgan (kar- soqov) bolalarni hayoti haqida fikrlar to'g'risida boradi. Surdopedagogika o'zi nima? Eshitish nuqsonining turlari, kelib chiqish sabablari qanday? ENB bolalarning tibbiy-pedagogik-psixologik va ijtimoiy adaptatsiya jarayoni. ENB bolalar huquqlari. ENB bolalar ta'limi hamda 2023-2024- o'quv yili dasturi qanday? Eshitish nuqsonini korreksiyalash qay tarzda olib borilayotganligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Eshitish nuqsonining turlari, kar kech kar, daktil alifbosi , imo-ishora nutqi tushunchalari.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается жизнь слабослышащих (глухонемых) детей в Узбекистане. Что такое педагогика глухих? Виды тугоухости, каковы причины? Процесс медико-педагогической-психологической и социальной адаптации слабослышащих детей. Права детей с нарушением слуха. Каково обучение слабослышащих детей и программа на 2023-2024 учебный год? Объясняется, как исправить потерю слуха.*

Ключевые слова: *Виды нарушений слуха, глухие и поздние глухие, дактильная азбука, понятия жестовой речи.*

ANNOTATION : *This article discusses the life of hearing-impaired (deaf-mute) children in Uzbekistan. What is deaf pedagogy? Types of hearing loss, what are the causes? Process of medical-pedagogical-psychological and social*

adaptation of hearing impaired children. Rights of hearing impaired children. What is the education of hearing-impaired children and the program for the 2023-2024 school year? How to correct hearing loss is explained.

Key words: *Types of hearing impairment, deaf and late deaf, dactyl alphabet, concepts of sign speech.*

Surdopedagogika (lotincha surdus kar va pedagogika) — defektologiya tarmogʻi; kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus oʻqitish va tarbiyalash masalalari boʻyicha ish olib boradi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni oʻqitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, oʻquv fanlarini oʻqitish, talaffuzni oʻrgatish va "lab bilan oʻqish", mehnatga oʻrgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning maktabgacha tarbiyasi uzoq tarixga ega. Progressiv surdopedagoglar kar bolalarni ilk yoshdan tarbiyalash, ular uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarni tashkil etish zarurligi haqida fikr bildirganlar. XIX asrda taniqli rus surdopedagog, surdopedagogika fanidan yaratilgan dastlabki asarlarning muallifi V.I.Fleri, kar bolalarni oʻqitish va tarbiyalashni erta boshlash zarurligini eʼtirof etgan. "Kar bolaning ilk tarbiyachisi- uning onasi, farzandiga mehr-muruvvatli, diqqat-eʼtiborli va gʻamxoʻr boʻlib, rivojlanishini taʼminlaydi talaffuz etish va labdan oʻqish malakalarini shakllantiradi-deydi olim. Kar bolalarning taʼlimi qancha barvaqt boshlansa, uning rivojlanishida shuncha sezilarli yutuqlarga erishish, umumiy taʼlim olishi imkoniyat yaratish mumkin. Ilk bor jismoniy va psixik rivojlanishida turli kamchiliklari boʻlgan bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarni tashkil etish masalasi 1895-1896 yilda texnik va kasbiy taʼlim boʻyicha birinchi anjumanda muhokama etilgan. 1903 yilda ilmiy-pedagogik anjumanda Peterburgda kar-soqovlarni oʻqitish va ularga muruvvat koʻrsatish masalalariga bagʻishlangan N.K.Patkanova va N.A.Raularning maʼruzalari eshitildi. Maʼruzalarda kar-soqov bolalar uchun ijtimoiy maktabgacha tarbiya muassasalarni tashkil etib, taʼlim-tarbiyani 3 yoshdan boshlash zarurligi isbotlanadi. Surdopedagoglar Ye.S.Borishpolskiy,

O.Komir, N.K.Patkanova, N.A.Rau, F.A.Raular kar bolalar kamol topishini eshituvchi bolalar rivojlanishiga yaqinlashtirish maqsadida ilk yoshdan ularning ogʻzaki nutqini rivojlantirish zarurligini taʼkidlaydilar. N.A.Rau Moskvada uning tashabbusi bilan ochilgan kar-soqov bolalar bogʻchasida olib borilgan ish tajribasi bilan oʻrtoqlashadi. B.D.Korsunskaya rahbarligida ishlab chiqilgan kar bolalarni oʻqitish va tarbiyalash tizimining mohiyati tarbiyalanuvchilarning oʻyin, mehnat, oʻquv, maishiy xoʻjalik faoliyatlarida ularning nutqini oʻstirish zarurligida ifodalanadi. Kar bolalarni oʻqitish va tarbiyalashda B.D.Korsunskaya toʻrtta tamoyilni ilgari suradi: nutqni rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan ishning barcha bosqichlarida nutqning leksik va grammatik jihatlariga eʼtibor berish. Analitik oʻqishga erta oʻrgatish zarurati; Tarbiyachining soʻzlab berishi va suhbatini kar bolalarni har tomonlama rivojlantirish vositasi qoʻllanilishi; Taʼlimning dastlabki davridan boshlab nutqning daktil shaklidan soʻzli nutqni egallash vositasida qoʻllash qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida bolalarning soʻzlashuv nutqi shakllantiriladi.

N. Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilishiga koʻra 4 ga boʻladi:

1. chastotani qabul qiladiganlar 150-250 Gk bu bolalar birona tovushni eshitmaydi
- 2.125-250-500 Gk chastotani qabul qiladi. A va U harflarini ajrata oladilar.
- 3.125-250-500-1000 Gk 3-4 unililarni ajrata oladi.
- 4.125-2000 Gk yaqin va uzoq boʻlmagan gaplarni eshitadi. Tanish gap va soʻz, unli va undoshni ajrata oladi.

Darajalarga boʻladigan boʻlsak 3 ta darajaga boʻlinadi:

- 1-darajali 50 Dbdan oshmaydi. 1 metrdan oshiqroq masofadagi soʻz va tovush balandligidagi gaplarni ajrata oladi.125-8000 Gk
- 2- darajali 70 Dbdan 1 metrdab kamroq masofada eshitadi.
- 3-darajali 73 Dbdan gap soʻzlar yetib borishi qiyinlashadi. 25 Dbdan eshitishi yoʻqola boshlaydi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarning kasalligining kelib chiqish sabablari: Eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skormotika, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish buzilishlari ichki, oʻrta, tashqi quloqlarni shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan boʻlsa, koʻp holatlarda karlik, agar oʻrta qoʻloq shikastlangan boʻlsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga homiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol oʻynaydi (qizamiq, gripp).-90 Db karlikka olib keladi. Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tugʻma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaharlanish, tugʻish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz taʼsirotlarining akustik taʼsiroti boʻlishi mumkin. Eshitish buzilish oʻrta quloqni oʻtkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qatʼiy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollashi) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chogʻida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga taʼsir qiluvchi omillar orasida otoskopik preparatlar asosan antibiotiklar muhim oʻringa egadir. Eshituv funksiyasi buzilishi asosan chaqaloqlik davrida koʻp uchraydi. L.V.Neylan eshitish buzilishlari 70 %ni bolaning 2-3 yoshlarda kuzatilishini eʼtirof etib oʻtadi(17). Bola hayotining keyingi yillarida eshitishni pasayishi kam kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar taʼlim – tarbiyasida tushirib qoldirilgan yillar, yuqori sinflarida kompensatsiya qilina olmaydi, buzilishlarni bartaraf qilinishi uchun uzoq muddat, kuch talab etadi. Ruhiy rivojlanish jarayonida birlamchi va ikkilamchi buzilishlar oʻrtasidagi iaxik munosabatlar buziladi. Taʼlim jarayonidagi dastlabki toʻsiq – bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzilishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga toʻsqinlik qila boshlaydi. Buzilishlarning barcha tiplarida bolaning ruhiy rivojlanishida oʻziga xos qonun – qoidalarni tasniflash mumkin (B. I. Lubovskiy). Buzilishning barcha tiplarida maʼlumotni qabul qilish,

qayta ishlash, saqlash va qo'llash qobiliyatini pastligi kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsonni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bor bolalarga gapirishni qisman bo'lsada logopedlar o'rgatadi. Artikulyatsion apparat bilan qo'l baravar ishlaydi. So'ngra bola qiynalmasdan asta sekin gapirishni yo'lga quyishi mumkin.

Ta'lim jarayonida eshitish qobiliyati cheklangan bolaga har qanday o'quv materialini so'z bilan tushuntirish ba'zan qiyin kechadi. Multimedia vositalari yordamida esa bolalarga kerakli ma'lumotlarni idrok etish osonlashadi. Bundan tashqari, ovoz balandligini o'zgartirishni osonlashtiradigan yangi axborot texnologiyalari, xususan, audio materiallarning muayyan chastotalarini o'zgartirish orqali eshitish qoldiqlarini rivojlantirish mashqlarida ham foydalanish mumkin. Zaif eshituvchi va kar bolalar bilan ishlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: - o'rganish motivatsiyasini oshirish; - o'quv jarayonining samaradorligini oshirish; - bolalarning kognitiv sohasini faollashtirishga ko'maklashish. O'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklaridan biri mashg'ulotlarning yangiligi, kompyuter bilan ishlashga qiziqish tufayli ta'lim sifatini oshirishdir. AKTdan foydalanish mashg'ulotlarni yuqori estetik va hissiy darajada o'tkazishga imkon beradi, ko'rgazmalilikni ta'minlaydi, zarur hollarda didaktik materialdan ko'proq foydalanish mumkin, vaqtni tejaydi, har bir bolaga o'z tempida ishlashga imkon beradi, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi, defektologga bola bilan differensiallashgan holda individual ishlashiga imkon beradi, ta'lim natijalarini tez nazorat qilish va baholash imkoniyatini beradi.

Tarbiyaning umumiy masalalari, uning hissiyoti, xulqini tarbiyalash maxsus tarbiyaga qaraganda ikkinchi darajali emas, balki maxsus tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Zero farzand, avvalo farzand, keyin esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bola. Buni unutmazlik lozim. uning ma'naviy qiyofasi, uning shaxsini

tarbiyalash – maxsus o‘qitishning har bir vaziyatini belgilaydigan asosiy jihat shu. Bunda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola xulqini tarbiyalashga uning eshitadigan tengdoshining xulqini tarbiyalashga kabi yondashish zarur.

Bolani soqovlikdan asrab qolish, atrofdagilar bilan muloqotga o‘rgatish uchun barcha vositalardan foydalanish kerak. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolani o‘qitishning (ota-onalar uchun) tobora samarali va qulay vositalardan biri **daktil (barmoqlar) nutqi sanaladi**. kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda undan keng foydalaniladi.

Daktil nutq nima va uning ta’limdagi roli nimadan iborat? Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqning bu noodatiy shaklidan o‘qitishda foydalanish zarurati ko‘pincha ota-onalarning e’tirozi va qarshiligiga sabab bo‘ladi. Daktil nutq – eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishning qudratli vositasi, u lug‘at boyligi va nutqni o‘zlashtirish sifatini, shuningdek eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiy rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin

Eshitish idrokini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar bilan bir paytda bolalarni reaksiya qilish va turli maishiy shovqinlar, tabiiy tovushlar, transport signallarini tushunishga o‘rgatishadi. Audioyozuvlarni eshitish ham eshitish idrokining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Katta yoshli kishi bola bilan birga musiqa taktiga mos harakat qiladi, bolaning o‘zini raqs harakatlarini bajarishga undaydi.

Xulosa sifatida shuni aytib o‘tamanki, har bir nuqsonli bolaning buyuk kelajagi bor albatta, shunchaki biz ularni qo‘llab-quvvatlab turishimiz shart chunki ular ham jamiyatimizni bir bo‘lagi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.A.Nazarova, Z.A.Mamarajabova. Maxsus pedagogika , (Surdopedagogika). O‘quv qo‘llanma T.: Innovatsiya-Ziyo , 2020
2. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018

3. Кехтер, Т.А. Необходимость применения в практике работы учителя начальных классов инфомационно-коммуникационных технологий/
Т.А.Кехтер.-2004.-155б.

4. [http:// kun.uz/uz](http://kun.uz/uz) .